

MUZEYLAR-MILLIY XOTIRA VA TARIXIY MEROS MASKANI

Salomova Sayyora Toshpo'latovna

Navoiy viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi bosh mutaxassisi.

Tel: 88-284-77-88

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19118141>

Annotatsiya. Ushbu maqolada muzeylarning jamiyat hayotidagi o'rni, milliy xotira va tarixiy merosni asrashdagi ahamiyati, ularning ma'rifiy hamda madaniy tarbiyadagi vazifalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston muzeylarining bugungi rivojlanish jarayonlari, zamonaviy texnologiyalar asosida ekspozitlarni saqlash va targ'ib etish mexanizmlari tahlil etilgan.

Maqolada muzeylarning yangi avlod yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi nomoddiy qadriyatlar manbai sifatidagi roli ham keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Muzey, milliy xotira, tarixiy meros, ekspozit, madaniy qadriyat, arxeologiya, etnografiya, ma'rifiy faoliyat, madaniy meros, O'zbekiston muzeylari, vatanparvarlik tarbiyasi.

Kirish

Muzeylar – bu o'tmish bilan bugunning, tarixiy xotira bilan zamonaviy taraqqiyotning uzviy bog'lovchisidir. Har bir xalqning milliy o'zligini anglash, o'z tarixini chuqur bilishi, madaniy merosini kelajak avlodga yetkazishi bevosita muzeylar faoliyati bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi globalashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, muzeylar nafaqat ekspozitlar jamlanmasi, balki millatning ruhiy boyligi, tarixiy xotirasi va ma'naviy merosini mujassam etgan maskandir.

Muzeylar – bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lab turuvchi ma'naviy ko'prikdir.

Ular ajdodlarimizdan qolgan tarixiy, madaniy va ilmiy merosni asrab-avaylab, kelajak avlodga yetkazadi. Har bir ekspozit – bu shunchaki buyum emas, balki o'zida ma'lum bir davr nafasi, insoniyat tafakkuri va jamiyat taraqqiyotini mujassam etgan tirik xotiradir.

Muzeylarning kelib chiqishi va tarixiy rivojlanishi

Muzey tushunchasi qadimdan mavjud bo'lib, dastlab "museyon" – ilhom, san'at va bilim maskani ma'nosini anglatgan. Insoniyat taraqqiyoti davomida muzeylar shakli va mazmuni tobora boyib borgan, natijada arxeologik, etnografik, san'at, tabiiy fanlar, adabiyot, tarix va texnika kabi turli yo'nalishdagi muzeylar shakllangan.

O'zbekistonda ham qadimdan turli buyumlar, san'at durdonalari, ajdodlar merosi va yodgorliklarni jamlash, saqlash va ularni hurmat bilan avlodlarga yetkazish an'anasi mavjud.

Mustaqillik yillarida esa muzeylar tarmog'i yanada kengaydi, zamonaviy texnologiyalar bilan boyidi va xalqaro miqyosga chiqdi.

Muzeylar milliy xotirani saqlashda eng muhim manbalardan biridir.

Chunki har bir ekspozit — bu tarixning tirik guvohi, real dalil va vaqtning o'zida mujassam bo'lgan ma'naviy qadriyatdir.

Muzeylar milliy xotirani tiklashda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Tarixiy faktlarni haqqoniy saqlash va targ'ib qilish.

2. Ajdodlarimizning boy merosini hujjatlar asosida namoyish etish.
3. Milliy o'zlikni mustahkamlash va yosh avlodda tarixiy g'ururni uyg'otish.

Muzeylar — millat tarixining xazinasini, o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'prikdir. Ular nafaqat madaniy merosni asraydi, balki jamiyatni ma'rifatli, tarixini qadrlaydigan va milliy o'zlikka ega avlodni tarbiyalaydi. Shu bois, muzeylarga bo'lgan e'tibor, ularni rivojlantirish va modernizatsiya qilish — milliy xotirani mustahkamlashning eng muhim kafolatidir. Muzeylar — yosh avlodni ma'naviy jihatdan yutuk, Vatanga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Chunki eksponatlar orqali inson tarixini nafaqat kitobdan, balki ko'rib, his qilib, chuqur anglaydi.

Muzeylar — millat tarixining xazinasini, o'tmish bilan kelajak o'rtasidagi ko'prikdir. Ular nafaqat madaniy merosni asraydi, balki jamiyatni ma'rifatli, tarixini qadrlaydigan va milliy o'zlikka ega avlodni tarbiyalaydi. Shu bois, muzeylarga bo'lgan e'tibor, ularni rivojlantirish va modernizatsiya qilish — milliy xotirani mustahkamlashning eng muhim kafolatidir.

Muzeylar milliy xotirani saqlash va mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi xalqimizning qadimiy davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini yoritadi. Bu yerda arxeologik topilmalar, qadimiy qo'lyozmalar, tangalar va san'at asarlari namoyish etiladi.

Shuningdek, Temuriylar tarixi davlat muzeyi buyuk ajdodimiz Amir Temur va temuriylar davri tarixini chuqur o'rganish imkonini beradi. Bu kabi maskanlar yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi, milliy g'ururni oshiradi.

Tarixiy meros — bu ajdodlardan qolgan bebaho boylikdir. Agar u saqlanmasa, millat o'z ildizidan uziladi. Muzeylar ana shu ildizlarni mustahkamlab turadi. Ular eksponatlarni restavratsiya qiladi, ilmiy tadqiqotlar olib boradi va ko'rgazmalar tashkil etadi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yordamida interaktiv ko'rgazmalar, virtual sayohatlar va 3D namoyishlar tashkil qilinmoqda. Bu esa yoshlarning muzeylarga bo'lgan qiziqishini yanada oshirmoqda.

Muzeylar milliy xotira va tarixiy merosni saqlab qoladigan muhim maskan hisoblanadi.

Ular ajdodlarimizdan qolgan bebaho yodgorliklarni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga yetkazadi. Muzeylar orqali insonlar o'z tarixini, madaniyatini va milliy qadriyatlarni chuqurroq anglaydi. Shuning uchun muzeylar nafaqat tarixni saqlovchi joy, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi muhim maskan hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Muzeyshunoslik»- Bekmurodov. M, Rashidova. M-Toshkent.2007
2. «O'zbekistonda muzey ishi tarixi»-Kuryazova. D-Toshkent.San`at.2010
3. «Muzeylar zamonaviy O'zbekiston madaniyati tizimida»-Toshkent. San`at.2007
4. «Muzeylar xalq tarixining ko'zusi»-Toshkent.2011